

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



**TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA**

YAKUNIY HISOBOT



TOSHKENT KIMYO-TEKNOLOGIYA INSTITUTI
davlat oliy ta'lim tashkiloti

60510100 – Biologiya
bakalavriat ta'lim dasturi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60510100 – Biologiya

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260071
Xulosa raqami	638-son
Xulosa sanasi	2026-yil 15-may
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"Toshkent kimyo-texnologiya instituti" davlat muassasasi
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 32B-uy; guvohnoma № 09-01777, 17.10.1991-yil
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Biologiya
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60510100
Akkreditatsiya usuli	masofaviy
Ekspertlar guruhi raisi (F.I.Sh., lavozimi)	Mirzakulov Sobitjon Oltinovich – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti; ekspert komissiyasi raisi

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 09-01777 / 17.10.1991
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60510100 – Biologiya
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60510100 – Biology
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60510100 – Биология
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Biolog
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	Biologiya fani o'qituvchisi
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	350 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 32B-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Qisman muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi (muvofiq). Institutda ta'lim dasturini amalga oshirish uchun tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlari shakllantirilgan. Dasturni rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha besh yillik istiqbolli reja mavjud bo'lib, u institutning 2024-yil 25-iyundagi 218-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. Sifatni ichki ta'minlash tizimi (ISO 37001:2016 talablari asosida) yo'lga qo'yilgan, manfaatdor tomonlar — ish beruvchilar, professor-o'qituvchilar va talabalar — jarayonlarda ishtirok etadi. Mehnat bozori ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimi tashkil etilgan. Ekspert komissiyasi ushbu yo'nalishdagi barcha mezonlarni muvofiq deb baholadi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi (muvofiq). Ta'lim dasturi manfaatdor tomonlar ishtirokida belgilangan tartibda ishlab chiqilgan; dasturning maqsadi, kutilayotgan o'quv natijalari va shakllantiriladigan kompetensiyalar aniqlangan. Dastur milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, xorijiy hamkorlik tajribasi (jumladan Toronto va UTS universitetlari tajribasi) inobatga olingan. Dasturning davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangan. Ekspert komissiyasi yo'nalishni to'liq muvofiq deb topdi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi (muvofiq). Ishchi o'quv reja va fan dasturlari belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgan, o'quv jarayoni ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgan hamda doimiy baholab boriladi. Talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, akademik halollik qoidalarining belgilanishi ta'minlangan. Baholash natijalari bo'yicha talabalarning fikr-mulohazalarini olish imkoniyati (3.6-mezon) qisman muvofiq deb baholandi — tegishli tartib mavjud bo'lsa-da, uning amaliy namunalari va muddatlari to'liq hujjatlashtirilishi zarur. Qolgan barcha mezonlar muvofiq deb topildi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi (muvofig). Ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangan va o'qishga qabul shaffof tarzda yo'lga qo'yilgan. Qabul parametrlari institutning resurslari va imkoniyatlariga mos keladi. Talabalarning o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish, chetlashtirish va qayta tiklash tartiblari, shuningdek talabalarni qo'llab-quvvatlash va maslahat berish mexanizmlari mavjud. Ekspert komissiyasi ushbu yo'nalishdagi barcha mezonlarni muvofiq deb baholadi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi (muvofig). Ta'lim dasturi belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar hamda boshqaruv, texnik va o'quv-yordamchi xodimlar bilan ta'minlangan; asosiy shtatdagi ilmiy daraja va unvonga ega professor-o'qituvchilar ulushi belgilangan me'yordan (kamida 70 foiz) yuqori. O'quv rejadagi fanlarga mos kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega kadrlar (jumladan Navruzov PhD, Qarshiyev professor kabi mutaxassislar) jalb etilgan. Kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgan. Yo'nalish muvofiq deb baholandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi (muvofig). Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur asbob-uskunalar, laboratoriya jihozlari va o'quv-metodik qo'llanmalar mavjud. Fanlar kesimida o'quv adabiyotlari va elektron ta'lim resurslari bilan ta'minlanganlik, o'quv va laboratoriya xonalarining talabalar soniga mosligi ta'minlangan. Inklyuziv ta'lim uchun audio-video resurslar va Brayl yozuvidagi materiallar, raqamli ta'lim muhiti (LMS, Wi-Fi, onlayn kurslar) hamda axborot-resurs markazi imkoniyatlari yaratilgan. Ekspert komissiyasi barcha mezonlarni muvofiq deb baholadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ekspert komissiyasi xulosasida akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklar aniqlanmagan.

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan kichik kamchiliklar:

- ✓ Ta'lim dasturining o'quv natijalari hamda har bir dastur maqsadining o'quv natijalariga bog'liqligini ko'rsatuvchi aniq moslik xaritasi (matriksa)

hujjatlashtirilmagan; fanlar kesimida o'quv natijalari va dastur kompetensiyalari o'rtasidagi bog'liqlik to'liq yoritilmagan.

- ✓ Talabalarning baholash natijalari bo'yicha apellyatsiya (murojaat) berish tartibining amaliy namunalari, bosqichlari va muddatlari to'liq hujjatlashtirilmagan.
- ✓ Dastur yangi ochilayotgani sababli uni amalga oshirishning ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlash — xalqaro ilmiy hamkorlik va tadqiqot faolligini kuchaytirish zarur.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Fanlar kesimida o'quv natijalari va dastur kompetensiyalari o'rtasidagi moslik matriksalarini ishlab chiqish va hujjatlashtirish, ushbu natijalarga erishish yo'lini aniq ko'rsatish tavsiya etiladi.
- ✓ Talabalarning baholash natijalari yuzasidan apellyatsiya berish tartibini amaliy namunalari, bosqichlar va muddatlar bilan aniq belgilash hamda dalillar bilan tasdiqlash tavsiya etiladi.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish, xalqaro ilmiy-tadqiqot hamkorligini kengaytirish va tadqiqot natijalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish tavsiya etiladi.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Yakuniy xulosa "Toshkent kimyo-texnologiya instituti" davlat muassasasining 60510100 – Biologiya ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlarni masofaviy o'rganish, dastlabki tahlil va ekspertlarning takroriy so'rovlariga berilgan javoblar asosida shakllantirildi. Baholash oltita yo'nalish (bob) va ularga tegishli mezonlar bo'yicha amalga oshirildi.


O'tkazilgan tahlil natijasida ta'lim dasturi tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash, ta'lim dasturlari, o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlari bo'yicha belgilangan talablarga javob berishi aniqlandi. Barcha oltita yo'nalish muvofiq deb baholandi; mezonlar orasida faqat bittasi (3.6) qisman muvofiq deb topildi.

Aniqlangan kamchiliklar akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi darajada emas va ular tegishli tavsiyalar asosida bartaraf etilishi mumkin. Umumlashtirilgan baho ijobiy bo'lib, ta'lim dasturi zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etilgan.

Yuqoridagi barcha dalillarga tayangan holda, 60510100 – Biologiya ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasi talablariga **muvofig deb baholandi**.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	2026-yil 5-iyun
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	2-son
Yakuniy qaror (akkreditatsiyadan o'tdi/akkreditatsiyadan o'tmadi)	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

